



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI KATTAQO'RG'ON TUMAN OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI

Kattaqo'rg'on tumani M.Ulug'bek mahallasi Tel: 414 31 94, 414 31 93

31«8»2022 yil.

54-7-96-OB/2022-son

### PUDRAT SHARTNOMASI

Kattaqo'rg'on tuman «MIRAQAS» xususiy firmasi keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladi. O'zining (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yuritiladi rahbari T.Rustamov nomidan, bir tomondan Kattaqo'rg'on tuman Obodonlashtirish boshqarmasi keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi, o'zining asosida ish yurituvchi M.Rasulov nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

#### 1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Ushbu shartnoma bo'yicha «Pudratchi» «Buyurtmachi»ning buyurtmasiga asosan Kattaqo'rg'on tuman Qushbegi MFY Shipon qishloq ichki yo'lini joriy ta'mirlash ishlarini bajarishni, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni qabul qilib olishni hamda to'lovni amalga oshirishni o'z zimmasiga oladilar

#### 2. SHARTNOMA BUYICHA KELISHUV NARXLAR

2.1. Mazkur shartnomaning umumiy narxi "Etender.uzex.uz" maxsus axborot portalida 2022-yil 17-avgust kuni LOT- № 139156 raqami bilan e'lon joylashtirilgan va 2022-yil 26-avgustdagi tanlov komissiyasining elektron bayonnomasi bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlarni hisobga olgan holda 659 325 941 ( Olti yuz ellik to'qqiz million uch yuz yigirma besh ming to'qqiz yuz qirq bir) so'mni tashkil etadi..

#### 3. ISHLARINI BOSHLASH, BAJARISH VA TUGATISH BO'YICHA SHARTNOMAVIY MUDDATLAR

3.1. Ishlarini bajarish shartnoma taraflar tomonidan imzolaniib, g'aznachilik bo'linmasida majburiy ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng boshlanadi va 2022-yilning 31-dekabrqa qadar amalga oshiriladi.

3.2. «Buyurtmachi» tomonidan ta'mirlash ishlarini bajarish davrida «Pudratchi»ga o'zi tomonidan xarid qilingan ta'mirlash materiallarini taqdim qilishi mumkin.

3.3. Ishlarni to'xtab qolganligi uchun sababchi bo'lgan tomon buning oqibatida kelib chiqadigan har qanday kamomad yoki javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

3.4. Ishlar tugallab foydalanishga topshirish uchun tuzilgan komissiya dalolatnomasi tasdiqlangandan so'ng ishlari tomom bo'lgan deb hisoblanadi.

3.5. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno: Qurilish qiymatini ko'paytirishga engib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlarisabab bo'lganda; Ishlar xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

3.7. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasida shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

#### 4. TO'LOV SHARTI VA TARTIBI

4.1. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlarini boshlash uchun «Pudratchi»ga shartnoma narxining 30% yoki 197 797 782 (Bir yuz to'qson etti million etti yuz to'qson etti ming etti yuz sakson ikki) so'm miqdorda oldindan to'lov amalga oshiriladi. «Buyurtmachi» tomonidan yakuniy to'lov «Pudratchi» ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi xujjat taqdim qilgandan so'ng amalga oshiriladi. Yakuniy to'lovning miqdori 461 528 159 (to'rt yuz oltmish bir million besh yuz yigirma sakkiz ming bir yuz ellik to'qqiz) so'mni ya'ni, kelishilgan summaning 70 % ni tashkil etadi va bu yakuniy to'lov 2022-yil 31-dekabrgacha amalga oshiriladi.

4.2. «Buyurtmachi» to'lovni pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi.

4.3. «Pudrat» tashkiloti tomonidan shartnomada ko'rsatilgan summadan oshiqcha bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar amalga oshirilmaydi.

## **5. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI**

5.1. Ishlar yuqorida kelishilgan muddatda tugatish va foydalanishga topshirish.

5.2. Maxsus ta'mirlash ishlarini bajarish uchun maxsus yollanma pudratchi tashkilotlarini jalb qiladi.

5.3. Har haftaning dushanba kunida joriy haftada bajarilgan ta'mirlash montaj ishlari to'g'risidagi tegishli hujjatlarni hamda har oyning 20 kuniga qadar bajarilgan ishlar dalolatnomalari va schyot-fakturalarini «Buyurtmachi»ga taqdim qilishi shart. Agar ta'mirlash mazkur shartnomada ko'rsatilgan muddatda «Pudratchi»ning aybi bilan foydalanishga topshirilmasa, u holda «Buyurtmachi» ga quyidagi tartibda jarima to'laydi: -ta'mirlash muddati 10 kunga kechiktirilsa, shartnoma bahosidan 0,5% miqdorida: -keyingi 20 kun uchun shartnoma bahosidan 5 % miqdorida:

- undan keyingi muddatlar uchun 20 % miqdorida: Jarima sanksiyasi «Buyurtmachi» tomonidan bildirilgan yozma ravishdagi da'vodan keyin 10 kun muddat mobaynida to'lanishi shart.

5.4. «Pudratchi» shartnomada nazarda tutilgan mablag' doirasida ishlarni bajaradi va shunga muvofiq bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnomani tuzadi.

## **6. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI**

6.7. Shartnoma ko'rsatilgan 4.1. va 4.2. bandlari buzilsa; «Buyurtmachi» maxsus hisob raqamidan har bir kechiktirilgan kun uchun shartnomaning to'lanmagan narxini 0,4% miqdorida «Pudratchiga» jarima to'laydi. Jarima miqdori shartnoma so'mmasining 50% dan oshmasligi kerak.

6.8. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida belgilangan standartlarga va amaldagi qonunchilikka asosan qabul qilib oladi.

6.9. «Buyurtmachi» tasdiqlangan smetasida muvofiq byudjetda nazarda tutilgan mablag' doirasida shartnoma tuzadi va shartnoma summasiga muvofiq dalolatnomani «Pudratchi» bilan birgalikda tuzad.

## **7. NIZOLARNI HAL QILISH**

7.1. Taraflar shartnomada ko'rsatilgan majburiyat va shartlarni bajarmagan taqdirlarida O'z.R.Fuqarolik kodeksi va «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonun hamda boshqa qonun hujjatlari asosida javobgar bo'ladilar.

7.2. Taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar o'zaro kelishuv asosida, agar taraflar kelisha olmasalar nizolar javobgar joylashgan joydagi sudga hal qilinadi.

7.3 Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

7.4 Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal eta olmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi..

## **8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI**

8.1. Mazkur shartnomani taraflar imzolagandan so'ng Kattako'rg'on tuman G'aznachilik bo'linmasi tomonidan ro'yxatdan o'tgan paytdan boshlab kuchga kiradi va

31-dekabr 2022-yilgacha amal qiladi.

8.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib, bir xil yuridik kuchga ega bo'lib hisoblanadi va tomonlarning har biri uchun bir nusxada beriladi.

## 9. FORS-MAJOR

9.1. Taraflardan biri shartnomaning engib bo'lmaydigan kuch, yani favqulotda muayyan sharoitda oldin olib bo'lmaydigan vaziyatlar (tabiiy ofatlar, noqulay ob-havo sharoitida, hukumat tadbirlari, hokimiyat organlarining qarorlari, harbiy nizolari, ichki tartibbuzarliklar va boshqa tabiiy ofatlar) fors - major tufayli bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi isbotlansa, javobgar bo'lmaydi.

9.2. Mazkur shartnoma bajarmagan yoki lozim darajada bajarilmasa tomonlar O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-hukukiy bazasi to'g'risida»gi qonuni va O'zbekiston Respublikasining boshqa amaldagi qonunlari talablari bo'yicha javobgar bo'ladi.

## 10. BOSHQA SHARTLAR

10.1. Shartnomada belgilanmagan taraflarning javobgarlik me'yori O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra belgilanadi.

10.2. Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgarishlar va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilishi va taraflar tomondan imzolanishi kerak.

10.3. Mazkur shartnomaning bekor qilishiga, to'xtatilishiga asos amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

10.4. Mazkurshartnoma har bir tarafga bitta nusxadan, jami ikki nusxada tuziladi.

## 11. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

11.1. Tomonlar:

11.1.1. Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bo'lmagan) shaxslari va xodimlari, ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarni bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklamay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti-harakatlari/harakatsizlikarini sodir etmaydilar.


11.1.2. Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bo'lmagan) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'barlantiruvchi tomon foydasiga qandaydir xatti-harakatlarni/harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.


11.2. Tomonda ushbu shartnomaning 11.1-bandida belgilangan talablarni buzish sodir etganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarning normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan kurashish dalillari mavjud bo'lgan holda esa, amaldagi qonun hujjatlarda belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## 12. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

|                  |               |
|------------------|---------------|
| «Bosh Pudratchi» | «Buyurtmachi» |
|------------------|---------------|

|  |  |
|--|--|
| <p>«MIRAQAS» X/F<br/>         Manzili: Kattaqo'rg'on tumani<br/>         Valijon MFY Miraqas qishlog'i<br/>         H/r 20208000301072589001<br/>         STIR: 202143266 OKONX:<br/>         MFO: 00311<br/>         Bank: Garant bank Ishtixon filiali</p> <p><b>Rahbar</b> _____<br/>         M.O' (imzo)</p> | <p><b>Kattaqo'rg'on tuman Obodonlashtirish boshkarmasi</b><br/>         Manzili: Payshanba sh M.Ulug'bek MFY<br/>         Tel: 41 41 2 51<br/>         SH.H/R: 100022860182157045204110001<br/>         STIR: 200747472 OKONX: 90110<br/>         Moliya Vazirligi yagona G'azna hisob varagi<br/>         h/r: 23402000300100001010<br/>         Markaziy bank Toshkent sh bosh bosh-si his-kitob kassa markazi MFO: 00014 STIR: 201122919</p> <p><b>Rahbar</b> _____ <b>M.Rasulov</b><br/>         M.O' (imzo)</p> |
|--|--|



|  |   |                                  |
|--|---|----------------------------------|
|  | <p>Hujjat <b>elektron raqamli imzo</b> orqali imzolangan.<br/>         Elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang.</p> |                                  |
|  | Imzolovchi F.I.SH.  | MASARIDDIN RASULOV G'OFUR O'G'LI |
|  | Imzolangan sana   | 31 abr 2022 14:13                |
|  | Hujjat kodi   | OE18105867                       |
|  | Hulosa kodi   | OB8781272071                     |



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
SAMARQAND VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI  
KATTAQO'RG'ON TUMAN YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

141408, Kattaqo'rg'on tumani, Kadan mahallasi, Mustaqillik ko'chasi

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**  
№ OE18105867

1. Loyihaning turi.  
Shartnoma.

2. Loyihaning nomi.

Kattaqo'rg'on tuman Obodonlashtirish boshqarmasi va "MIRAQAS" mas'uliyati cheklangan jamiyati o'rtasidagi pudrat shartnomasining loyihasi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.

Shartnoma loyihasi, Kattaqo'rg'on tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan va Kattaqo'rg'on tuman yuridik xizmat ko'rsatish markaziga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun "e-huquqshunos" dasturi orqali uchun 2022-yil 31-avgust kuni kiritilgan.

Loyiha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 666 – 685-moddalari, O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi" to'g'risidagi 670-I-sonli, 22.04.2021 yildagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonli qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.09.2021 yildagi "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6313-sonli farmoni talablariga javob beradi.

Taraflar o'rtasida shartnoma predmeti, shartnomaning bajarilish muddatlari, shartnomaning amal qilish muddati, hisob-kitob qilish tartibi, taraflarning majburiyatlari, shartnoma shartlari yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan javobgarlik masalasi, nizolarni hal etish tartibi qonuniy kelishilgan, korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar belgilangan hamda shartnomada taraflarning rekvizitlarini, shartnoma tuzilgan sana va joy ko'rsatilgan.

Shartnoma loyihasida ko'rsatilgan shartnoma shartlari, taraflarning javobgarligi me'yori va nizolarni hal etish tartibi amaldagi qonunchilik talablariga mos keladi va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



A.Nimatilayeva

2022-yil 31-avgust

**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 139156 на приобретение Самарқанд вилояти Каттақўрғон туман Қўшбеги МФЙ Шипон қишлоқ ички йўлини жорий таъмирлаш**

Способ проведения электронный

Дата 26.08.2022

Время рассмотрения 25.08.2022 19:56

Конкурсная комиссия Каттакургон туман Ободонлаштириш бошқармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

|                              |  |                                     |   |
|------------------------------|--|-------------------------------------|---|
| <b>Председатель комиссии</b> | RASULOV MASARIDDIN<br>G'OFUR O'G'LI        | Туман хокимли<br>бош<br>мутахассиси | Каттакургон туман<br>хокимлиги                    |
| <b>Секретарь комиссии</b>    | SHAROPOV YUSUBJON<br>RAVSHANOVICH          | Бўлим бошлиғи                       | Каттақўрғон туман<br>Ободонлаштириш<br>бошқармаси |
| <b>Член комиссии</b>         | DJAMOLOV AKMAL<br>KAMOLOVICH               | Бош муҳандис                        | Каттақўрғон туман<br>Ободонлаштириш<br>бошқармаси |
| <b>Член комиссии</b>         | ASHUROV FAZLIDDIN<br>XAMROQULOVICH         | Бош ҳисобчи                         | Каттақўрғон туман<br>Ободонлаштириш<br>бошқармаси |
| <b>Член комиссии</b>         | QODIROV RAVUBJON<br>RAXMONOVICH            | Омбормудир                          | Каттақўрғон туман<br>Ободонлаштириш<br>бошқармаси |
| <b>Член комиссии</b>         | NURMOMATOV<br>NAG'MATILLO<br>MIYASSAROVICH | Техник<br>назоратчи                 | Каттақўрғон туман<br>Ободонлаштириш<br>бошқармаси |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 26.08.2022 года № лота 139156.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 70.00 / Весовой коэф. ценовой части: 30.00)

Мин. балл: 10

Предмет закупки:

| <b>Наименование товара (работы, услуги)</b> | <b>Услуга по текущему ремонту автомобильных дорог</b>  |
|---|--|
| Подробное описание                          | Сўралган маълумотлар корхонада мавжуд бўла туриб тақдим қилинмаса балл берилмайди. Маълумотларнинг ҳаққонийлигига ва бириктириладиган файлларнинг қалбаки эмаслигига танлов иштирокчиси жавобгардир, агар ушбу ҳолатлар кузатилса келтирилган талаб бўйича танлов иштирокчисига балл берилмайди. |
| Количество товара                           | 1.00   |
| Единица измерения                           |  |
| Цена товара (услуги) за единицу             | 659 687 000.00   |
| Стартовая сумма                             | 659 687 000.00   |
| Валюта                                      | UZS  |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Корхонанинг балансида ёки корхона раҳбарининг номида бўлган техникаларнинг мавжудлиги бўйича

баҳолаш. Ушбу талабга таклифни баҳолашда техникаларнинг техпаспорти ва рақами кўрсатилган расмлари скриншот, jpg, jpeg формат усулида ёки ушбу усулларни ўз ичига олган pdf ёки "word" шаклида илова қилиниши шарт.

Тип: Текстовое значение

Описание: Махсус техникаларнинг ҳар бирига шартли 3 балл, юк ташувчи машиналарнинг ҳар бирига шартли 2 балл ва енгил машиналарнинг ҳар бирига шартли 1 балл берилади. Таклиф тўпланган жами шартли балл натижаси билан таққослаш усулида 15 баллик тизимда баҳоланади.

Обязательность: Не критично

| Наименование участника               | Макс балл | Значение участника                      | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|--------------------------------------|-----------|---|----------------|------------|------------|---------|
| <b>МИРОКАС Х/Ф</b>                   | 15        | Талаб қилинган хужжатлар илова қилинади | 15             | Экспертная |            |         |
| <b>ООО МАНАММАДКАРИМ ZIYO SERVIS</b> | 15        | Талаб қилинган хужжатлар илова қилинади | 0              | Экспертная |            |         |

Критерий №2 Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 9 ноябрдаги 699-сонли Қарорида кўрсатилган қурилиш корхоналарининг эълон давридаги рейтинги, яъни ишончлилик тоифаси-рейтинг баҳоси-ишончлилик даражаси-умумий бали бўйича баҳолаш. Ушбу талабга таклифни баҳолашда "reying.mc.uz" дастуридан олинган ҳарфлардан иборат рейтингни скриншот файли, "tender.mc.uz" дастурининг шахсий кабинетидан олинган рақамлардан иборат рейтинг балини скриншот файли илова қилиниши шарт

Тип: Текстовое значение

Описание: Рейтинг юқориликка қараб таққослаш усулида балл (5) берилади. Рейтинг балига эга бўлмай, рейтинг баҳосининг ишончлилик даражаси мавжуд бўлса, танлов иштирокчисига ишончлилик даражасининг энг қуйи даражасидаги минимум балл берилади. Танлов иштирокчиси қурилиш ташкилоти бўлиб, лекин рейтинг баҳосида мавжуд бўлмаса, унга "D" ишончлилик тоифасининг учинчи қуйи даражасидаги энг минимал балл берилади.

Обязательность: Не критично

| Наименование участника               | Макс балл | Значение участника                      | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|--------------------------------------|-----------|---|----------------|------------|------------|---------|
| <b>МИРОКАС Х/Ф</b>                   | 5         | Талаб қилинган хужжатлар илова қилинади | 0              | Экспертная |            |         |
| <b>ООО МАНАММАДКАРИМ ZIYO SERVIS</b> | 5         | Талаб қилинган хужжатлар илова қилинади | 0              | Экспертная |            |         |

Критерий №3 Корхонада ишловчи раҳбар ва ходимларга 2020-2021-йиллар ва 2022 йил охириги ҳисобот давригача ҳисобланган иш ҳақи самарадорлигини баҳолаш. Таклифни баҳолаш учун 2020 йил декабр, 2021 йил декабр ва 2022 йил охириги ҳисобот ойи бўйича жисмоний шахслардан олинган даромад ва ижтимоий солиқ ҳисоботида бириктирилган раҳбар ва ходимларнинг исмлари номма-ном келтирилган файлнинг 1-варағи (list01) тўлиқ тақдим этилиши шарт. Корхонанинг ташкил этилганидан бажарган қурилиш иши кўрсатилган давр оралиғида бошланган бўлса, ўша даврдан олдинги ой ҳисоботининг 1-варағи (list01) ҳам тақдим этилиши шарт.

Тип: Текстовое значение

Описание: Корхона томонидан 2020-2021 ва 2022 й охириги ҳисобот давригача раҳбар ва ходимларга ҳисобланган жами иш ҳақининг корхона томонидан 2020-2021 ва 2022 й охириги ҳисобот давригача бажарилган ишлари ва сотилган товарларининг жами суммасидаги улуши топилади. Улуш юқорилигига қараб таққослаш усулида балл (10) берилади. Курилиш корхонаси бўлган танлов иштирокчиси иш бажармаган ёки маҳсулот сотмаган бўлса, рақобатни чеклаш ҳолатини олдини олиш учун унга энг кам балл олган танлов иштирокчиси олган балл, агар танловда икки иштирокчи қатнашса, иккинчи иштирокчи олган балл берилади.

Обязательность: Не критично

| Наименование участника        | Макс балл | Значение участника                      | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|-------------------------------|-----------|---|----------------|------------|------------|---------|
| МИРОКАС Х/Ф                   | 10        | Талаб қилинган хужжатлар илова қилинади | 9              | Экспертная |            |         |
| ООО МАНАММАДКАРИМ ЗИYO СЕРВИС | 10        | Талаб қилинган хужжатлар илова қилинади | 10             | Экспертная |            |         |

Критерий №4 Корхона раҳбарининг курилиш соҳасидаги мутахассислиги бўйича баҳолаш. Ушбу талабга таклифни баҳолаш учун Ягона миллий меҳнат тизими дастури (my.mehnat.uz) дан корхона раҳбарини ишлаётганлиги тўғрисида штрих кодли маълумотнома тақдим этиш; маълумоти олий ёки ўрта махсус бўлса диплом нусхасининг скриншот файлини тақдим этиш талаб этилади.

Тип: Текстовое значение

Описание: Курилиш соҳаси бўйича маълумоти олий бўлса 10 балл, курилиш соҳаси бўйича маълумоти ўрта махсус бўлса 5 балл, курилиш соҳаси бўйича маълумотга эга бўлмаса 0 балл берилади

Обязательность: Не критично

| Наименование участника        | Макс балл | Значение участника                      | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|-------------------------------|-----------|---|----------------|------------|------------|---------|
| МИРОКАС Х/Ф                   | 10        | Талаб қилинган хужжатлар илова қилинади | 0              | Экспертная |            |         |
| ООО МАНАММАДКАРИМ ЗИYO СЕРВИС | 10        | Талаб қилинган хужжатлар илова қилинади | 0              | Экспертная |            |         |

Критерий №5 2020-2021-йиллар ва 2022й 31 июл ҳолатига корхона томонидан бажарилган иш ва сотилган товарларнинг солиқдан яширилмаганлиги бўйича баҳолаш. Ушбуни аниқлаш учун кўрсатилган муддат бўйича "soliqservis.uz" дастуридан олинган икки томонлама электрон тасдиқланган штрих коди мавжуд барча фактураларнинг номма-ном "pdf" шаклидаги рўйхати тақдим қилиниши шарт.

Тип: Текстовое значение

Описание: Агар бир миллион сўмдан ортиқ бажарилган иш ва сотилган товарлар солиқдан яширилган бўлса 0 балл берилади, агар яширилмаган бўлса 10 балл берилади. Агар курилиш корхонаси бўлган танлов иштирокчиси умуман курилиш иши бажармаган ёки маҳсулот сотмаган бўлса, рақобатни чеклаш ҳолатини олдини олиш учун унга 10 балл берилади.

Обязательность: Не критично



| Наименование участника               | Макс балл | Значение участника                      | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|--------------------------------------|-----------|---|----------------|------------|------------|---------|
| <b>МИРОКАС Х/Ф</b>                   | 10        | Талаб қилинган хужжатлар илова қилинади | 10             | Экспертная |            |         |
| <b>ООО МАНАММАДКАРИМ ZIYO SERVIS</b> | 10        | Талаб қилинган хужжатлар илова қилинади | 10             | Экспертная |            |         |

Критерий №6 2020-2021-йиллар ва 2022й 31 июл ҳолатига бажарилган ишлар ва сотилган маҳсулотларга нисбатан тўланган жами солиқ тўловларининг улуши бўйича баҳолаш. Кўрсатилган муддатлар учун банкнинг барча ҳисобрақамларидаги айланма маблағлари ҳаракати тўғрисидаги маълумоти (маъл-да операция бўлган сана, пул келиб тушган ташкилот ва пул чиқиб кетган ташкилотнинг реквизитлари, оборот дебет ва кредит сумма ҳамда тўлов мақсади бўлиши шарт.Ҳар бир варағига банк ўз муҳри ёки штампи,имзоси билан тасдиқлаб бериши шарт) ҳамда кўрсатилган даврлардаги тўлиқ "pdf" шаклидаги штрихли солиқ солиштирама далолатномалари тақ

Тип: Текстовое значение

Описание: Улуш юқорилигига қараб балл(10) берилади. Агар қурилиш корхонаси бўлган танлов иштирокчиси умуман қурилиш иши бажармаган ёки маҳсулот сотмаган бўлса, рақобатни чеклаш ҳолатини олдини олиш учун унга таққослаш усули билан аниқланган энг кам балл олган танлов иштирокчиси олган балл, агар танловда икки иштирокчи қатнашса, иккинчи иштирокчи олган балл берилади.

Обязательность: Не критично

| Наименование участника               | Макс балл | Значение участника                      | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|--------------------------------------|-----------|---|----------------|------------|------------|---------|
| <b>МИРОКАС Х/Ф</b>                   | 10        | Талаб қилинган хужжатлар илова қилинади | 10             | Экспертная |            |         |
| <b>ООО МАНАММАДКАРИМ ZIYO SERVIS</b> | 10        | Талаб қилинган хужжатлар илова қилинади | 4.92           | Экспертная |            |         |

Критерий №7 Эълонга илова қилинган лойиҳа-смета хужжатларига асосан танлов иштирокчиси томонидан бажариладиган ишларга сарфланадиган меҳнат ресурслари, машина ва механизмлар, қурилиш моллари, ускуналар ва бошқа хизматлардан иборат ресурслар ведомостини ўз ичига олган единичка.

Тип: Текстовое значение

Описание: Единичкада хатолик бўлса балл берилмайди, фақатгина лойиҳа-смета хужжатларида кўрсатилган ишлар бажарилиши зарур, лойиҳа-смета хужжатларида кўрсатилмаган ишлар бажарилмаслиги зарур. Маълумот "excel" кўринишида бўлиши шарт. Сифатли единичка учун 10 балл берилади

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника             | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|------------------------|-----------|--------------------------------|----------------|------------|------------|---------|
| <b>МИРОКАС Х/Ф</b>     | 10        | Талаб қилинган хужжатлар илова | 10             | Экспертная |            |         |

| Наименование участника        | Макс балл | Значение участника                      | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|-------------------------------|-----------|---|----------------|------------|------------|---------|
|                               |           | қилинади                                |                |            |            |         |
| ООО МАНАММАДКАРИМ ZIYO SERVIS | 10        | Талаб қилинган хужжатлар илова қилинади | 10             | Экспертная |            |         |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника        | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения    | Оценка стоимости (балл) |
|-------------------------------|-----------------|--------------------|----------------------------------|------------------------|----------------------|---------------------|-------------------------|
| МИРОКАС Х/Ф                   | 659 687 000.00  | 659 325 941.00 UZS | 659 325 941.00                   | 00.00                  | 659 325 941.00       | 22.08.2022 10:28:43 | 30.00                   |
| ООО МАНАММАДКАРИМ ZIYO SERVIS | 659 687 000.00  | 659 657 588.00 UZS | 659 657 588.00                   | 00.00                  | 659 657 588.00       | 23.08.2022 22:02:15 | 29.98                   |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника        | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|-------------------------------|---------------------------------|--------------------------------|---------------|
| МИРОКАС Х/Ф                   | 54.0001                         | 30                             | 84.0001       |
| ООО МАНАММАДКАРИМ ZIYO SERVIS | 34.9202                         | 29.98                          | 64.9002       |

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 139156 от 26.08.2022 года на приобретение Самарқанд вилояти Каттакўрғон туман Кушбеги МФЙ Шипон қишлоқ ички йўлини жорий таъмирлаш определила победителем:

МИРОКАС Х/Ф  
202143266

и резервный исполнитель: ООО МАНАММАДКАРИМ ZIYO SERVIS (308440222)

Проголосовали

| Комиссия              | Ф.И.О.                               | Голосование | Комментарии |
|-----------------------|--------------------------------------|-------------|-------------|
| Председатель комиссии | RASULOV MASARIDDIN G'OFUR O'G'LI     | Согласен    |             |
| Член комиссии         | DJAMOLOV AKMAL KAMOLOVICH            | Согласен    |             |
| Член комиссии         | ASHUROV FAZLIDDIN XAMROQULOVICH      | Согласен    |             |
| Член комиссии         | QODIROV RAVUBJON RAXMONOVICH         | Согласен    |             |
| Член комиссии         | NURMOMATOV NAG'MATILLO MIYASSAROVICH | Согласен    |             |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

## GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektini yagona davlat ro'yxatiga

"MIRAQAS" Xususiy korxonasi

(Yuridik shaxsning - tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"MIRAQAS" XK

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

18.11.2008

1293

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi

(Sana oy (soz bilan) ni)

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

202143266

Tashkiliy-huquqiy  
shakli

Xususiy korxonasi

Joylashgan joyi:

Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumani, Kattaming, Kattaming qishlog'i,

Guvohnoma:

Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumani, DAVLAT  
XIZMATLARI MARKAZI

tomonidan  
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organing to'liq nomi)

